

**DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA TARBIYALANUVCHILAR  
INTELEKTUAL QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH**

*Yulduz Yarmanova - Qarshi Davlat Universiteti  
Farangiz Ahmedova -Shahrisabz davlat  
pedagogika instituti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo‘lg‘usi o‘qituvchilarda differential yondashuv asosida tabiyalanuvchilar intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlar, bugungi kunda pedagoglar tayyorlash tizimini takomillashtirish, pedagoglar mahoratini oshirish, pedagogik mahorat va qobiliyatlarni rivojlantirishga ega ekanligi yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** O‘quvchi, shaxs, intellektual, differential yondashuv, istiqbol, intellektual amaliyotlar, intelekt rivojlanish, zamonaviy o‘qitish tizimi, interaktiv va intellektual metod.

Bizga ma’lumki intelekt inson aqliy faoliyatining asosidir. Intelekt rivojlanishi uchun inson o‘z ustida ishlashi kerak, kitob o‘qishi, bilim olishi, jismoniy faoliyatda doimiy harakatda bo‘lishi lozim. Inson intelektining asosiy ozuqasi tajriba va bilimlar hisoblanadi, shuning uchun ham bilim olishdan to‘xtab qolgan inson fikrlash qobiliyati va ravon nutqini yo‘qotadi. Doimiy izlanishda bo‘lish inson ong faoliyatiga keng foyda keltiradi.

Zamonaviy ilm-fan va pedagogik amaliyotda ta’lim deganda, ta’lim oluvchiga avvalgi avlodlarning ijtimoiy-madaniy tajribasi maqsadga yo‘naltirilgan tarzda o‘tkazish qilish hamda mazkur tajribani o‘zlashtirishni tashkil qilish, shuningdek, mazkur tajribani turli vaziyatlarda qo‘llash imkoniyati va tayyorligi bilan bog‘liq faol ishharakat tushuniladi. Ta’lim olish, albatta, o‘z sharti sifatida mazkur tajribani o‘zlashtirish bo‘yicha o‘rgatish va ta’lim berish jarayonlarini taklif qiladi.

Tarbiya insonga muayyan qadriyatlari, xulq-atvor prinsiplari, baholash tizimi, o‘ziga, atrofdagi odamlarga, mehnatga, jamiyatga munosabatni shakllantirish maqsadga yo‘naltirilgan ta’sir o‘tkazishni nazarda tutadi. Ta’lim-tarbiya butun ta’lim muhitining bir butun ta’siri sifatida ko‘rib chiqiladi, vaholanki tahliliy va pedagogik maqsadlarda u axloqiy, estetik, mehnat, jismoniy va boshqalarga ko‘ra taqsimlanadi.

Intellektual salohiyatni kengaytirish amaliyotlari maktabgacha ta’lim tizimidan boshlanganligi bizga sir emas. Yosh bolalarda turli aqliy faoliyat tajribalarini olib borish eng yaxshi tajribali xodimlar tomonidan amalga oshiriladi. Mutaxassislarni fikricha inson ongi doimiy axborotlarni qabul qiluvchi hisoblanadi. Ong - insonda miyya muskulida joylashgan, va asosan neyronlar bilan faoliyatda bo‘luvchi hisoblanadi. Neyronlar ham bizga ma’lumki inson ongida axborot tashuvchi hujayra

hisoblanadi, neyrohujayralar inson yashash faoliyatida eng muhim hujayradir, chunki siz-u bizni hatto nafas olishdan tortib, hayol surishimizgacha bo‘lgan voqeeliklar neyronlar yordamida amalga oshadi. Neyron hujayralarini rivoji va sustlashishi inson sog’lig’iga, ruhiyatiga bog’liqdir. Inson stress holatida neyrohujayralarni axborot almashish tezligi oshadi, aksi bo‘lsa, hotirjamlik davrida inson o‘z fikrlarini bir joyga jamlashi oson bo‘ladi.

Odamning intellekti ancha murakkab tuzilishga ega bo‘ladi va faqat ko‘plab fikrlash turlarini emas, balki har xil intellektual operatsiyalar, malaka va ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Intellekt individning ma’lum darajada mustahkam, barqaror aqliy qobiliyatlari tuzilishidan iboratdir.

Aqliy faoliyat haqida so‘z borganda, u insonning muayyan bilimlarni o‘zlashtirish yoki yangiliklarni ochish bilan bog‘liq psixik faoliyatdir. Tafakkur atrofmuhitdagi voqelikni nutq yordami bilan bevosita, umumlashtirgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon, sotsialsababiy bog‘lanishlarni anglashga, yangilik ochishga va prognoz qilishga yo‘naltirilgan aqliy faoliyatdir.

Aqliy faoliyatni tarbiyalaydigan, uning mahsuldorligini oshiradigan, ijodiy xislatlarni rivojlantiradigan an’anaviy metodlar doirasiga quyidagilarni kiritish mukin:

1. Maktablarda fanlardan ilmiy to‘garaklar.
2. O‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlarida o‘quvchilarining ilmiy jamiyatlari.
3. O‘quvchilar va o‘quvchilarining har xil doirada o‘tadigan olimpiadalari.
4. O‘quvchilar ilmiy-tadqiqot ishlari.
5. Ijodiy ishlar, ko‘riklar, konkurslar, musobaqalar va hokazo.

Zamonaviy o‘qitish tizimida hozirda ikki turdag'i metodlardan keng foydalanishmoqda:

1. Interaktiv
2. Intellektual

Interaktiv metod asosan sun’iy intelektlarga tayangan bo‘ladi. Bu metoda o‘qituvchi, ta’lim beruvchi mutaxassis zamonaviy texnologiyalarga asosan dars o‘tadi. Ushbu metoda o‘quvchining intellektual salohiyati rivojlana boradi.

Interaktivlik, bu o‘zaro munosabatda bo‘lmoq, dialog rejimida o‘qimoq ma’nosini bildiradi. Shu sababli interaktiv o‘qitishdialogli o‘qitish demakdir. Dialog an’anaviy o‘qitish uslublarida ham mavjud, jumladan “o‘qituvchi-o‘quvchi”, “o‘qituvchi-o‘quvchilar guruhi” ko‘rinishida. Interaktiv o‘qitishda esa dialog “o‘quvchi-o‘quvchi”, “o‘quvchi-o‘quvchilar guruhi”, “o‘quvchiauditoriya”, “o‘quvchilar guruhi-auditoriya” (guruqlar prezentatsiyasi), “o‘quvchikompyuter” kabi ko‘rinishlarda ham bo‘ladi. O‘quvchi maruzada fakt “passiv” tinglovchi sifatida emas, balki “aktiv” ishtiroychi sifatida qatnashadi. Buning yorqin dalili sifatida darsdan tashqari to`garak mashg`ulotlarida Angliyaning tarixiy va madaniy yodgorliklarini ingliz tilida o`rgatish jarayonini aytib o`tish joizdir. Misol tariqasida Vestminstr saroyini o`rganadigan

bo`lsak, o`quvchilarning o`tilgan mavzuni qay darajada qabul qilishi va o`zlashtirishi quyidagi jadvalda ko`rsatib berilgan. O`qitishning interaktiv uslublari birinchi navbatda o`quvchining o`quv jarayonini faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik uslublar majmui va texnik vositalar tizimidir. Interaktiv uslubdagi mashg`ulotda o`quvchi berilayotgan ma'lumotlarni tinglashi, o`qishi, ko`rishi, yozib borishi, mavzu bo'yicha savollar berishi, o'z fikrini erkin bayon etishi, amaliy topshiriqlarni bajarishi va o'zining hayotiy tajribasi bilan bog'lab, mavzu bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar hosil qilishi lozim.

O`qituvchi o`qitishning interaktiv uslublarni bilishi bilan bir qatorda ularni qaysi mashg`ulot turida, qachon, qanday qo'llashni ham bilishi kerak. Chunki ta'lim -tarbiya jarayonida turli interaktiv pedagogik texnologiyalarni qo'llash guruhdagi tinglovchilarning bilimi, saviyasi, ma'lumoti, yoshi va boshqa ko'rsatkichlarini ham hisobga olishni taqozo etadi. Har bir sinf, har bir o`quvchi (tinglovchi)ga aynan bir mavzuni o`zlashtirishda alohida yondashishni talab etiladi. Shu sababli o`qitishning samaradorligini oshirishda pedagog ijodkor bo'lishi, o'zi ham pedagogik texnologiyalarni rivojlantirishi, boyitishi zarur.

O`qituvchilar o`quv tajribalarini rejalshtirishda yosh o'spirin intellektual rivojlanishidagi farqlarni hisobga olishlari kerak. Ushbu xilma-xillikni hal qilish uchun o`qituvchilar o`quvchilarning keng ko'lamli bilim qobiliyatlariga mos keladigan ta'limiy yondashuvlar va materiallarning assortimentini taqdim etishlari kerak. Masalan, konkret mutafakkirlar ko'proq tuzilgan o`quv tajribalarini talab qilsa, mavhum fikr yurituvchilar ko'proq qiyin faoliyatga muhtoj. Bundan tashqari, yosh o'spirinlar o'zlarining fikrlarini tushunadigan va biladigan o`qituvchilarga muhtoj. O`qituvchilar o`quv dasturlarini hayotiy kontseptsiyalar atrofida rejalshtirishlari kerak va yosh o'spirinlar uchun mazmunli bo'lgan haqiqiy tarbiyaviy faoliyatni (masalan, tajriba, ma'lumotlarni tahlil qilish va sintez qilish) ta'minlashlari kerak. Yosh o'spirinlarning qiziqishlari rivojlanib borayotganligi sababli, ular o'zlarining ta'lim dasturlari davomida izlanish imkoniyatlarini talab qiladilar. Intellektual rivojlanishni rivojlantirish uchun ushbu yoshlar o'zlarining dunyosi bilan to'g'ridan-to'g'ri o'zaro munosabatda bo'lishlari kerak - tengdoshlar va kattalar bilan suhbat va amaliy tajriba orqali. Xuddi shunday, yosh o'spirinlar ham demokratik tamoyillarni o'rganishlari va ularga kirishlari kerak. O`qituvchilar, shuningdek, maktab, uy va jamiyat qoidalarining sabablarini o'rganish uchun forumlar o'tkazishlari mumkin. O`qituvchilar kattalar uchun namuna sifatida yosh o'spirinlarni intellektual fikrlash va axloqiy mulohazalarni bog'lashga yo'naltirishlari mumkin.

Intellektual va interaktiv metodlarning istiqbolli natijalari hozirda barcha zamonaviylashgan ta'lim tizimi rivojlanayotgan maktab va shunday o`qitish dargohlarida mavjud va bora-bora rivojlanib bormoqda.

**Xulosa.**

Differensial yondashuv asosida tarbiyachilar intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda ularning qiziqishlari, imkoniyatlari va bilimlarni o‘zlashtirish darajalarini inobatga olgan. qobiliyatlarni rivojlantirishning tarkibiy qismi sifatida - nazariy, metodik va amaliy bilan o‘quv-mantiqiy, izlanishli, ijodiy va baholash tuzatish xarakteridagi muayyan vazifalar to‘plamini o‘zaro bog‘lash asosida amalga oshiriladi.

O‘quvchini shaxsini intellektual salohiyatini rivojlanishi tajribali mutaxassis qo‘lida va ta’lim beruvchi o‘z o‘quvchisiga e’tiborli tarzda bilim berishi lozim. Shuning natijasida intelektual salohiyat rivojlangani bilinadi.